

BARKAMOL AVLOD TARBIYASIDA BOLALAR O'YIN FAOLIYATINING AHAMIYATI

Rajabov Doston,
Osiyo xalqaro universiteti
1- bosqich magistri

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalarning rivojlanishida o'yin faoliyatining roli, o'yinlarning bola shaxsiyatini rivojlanishidagi ahamiyati, bolalarning o'yinda birlashishlari, uning bosqichlari tahlili haqida nazariy ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: bolalar o'yinlari, ijodiy o'yinlar, bola tarbiyasida o'yinning roli, tanqidiy fikrlash, ijodiy qobiliyat, kreativ yondashuv, ta'lim muassasasi.

Annotation: This article presents theoretical information about the role of play in the development of children, the importance of games in the development of a child's personality, the inclusion of children in the game, as well as an analysis of its stages.

Key words: children's games, creative games, the role of games in raising a child, critical thinking, creative abilities, creative approach, educational institution.

Аннотация: В данной статье представлены теоретические сведения о роли игры в развитии детей, значении игр в развитии личности ребенка, включении детей в игру, а также анализ ее этапов.

Ключевые слова: детские игры, творческие игры, роль игр в воспитании ребенка, критическое мышление, творческие способности, творческий подход, образовательное учреждение.

O'yin bolalarning asosiy faoliyati bo'lib, u orqali bolalar shaxs sifatida shakllanadi. O'yin bolaning kelajakdagi o'quv, mehnat faoliyati kishilarga munosabatining qanday darajada shakllanib borishini belgilaydi. O'yin qadim zamonlardan beri pedagog, psixolog, faylasuf, etnograf, san'atshunos olimlar diqqatini o'ziga tortib kelgan. O'yin ibtidoiy jamoa tuzumi davridayoq yuzaga kelgan bo'lib, jamiyat hayotida mehnatdan keyin turadi va uning mazmunini belgilaydi.

O'yin bola uchun haqiqiy hayotdir. Agar tarbiyachi bolalar o'yinini oqilona tashkil eta olsagina u ijobiy natijalarga erishishi mumkin. A.P. Usova shunday degan edi: «Bolalar hayoti va faoliyatini to'g'ri tashkil etish ularni to'g'ri tarbiyalash demakdir. Bolalarni tarbiyalashning o'yin shakli shuning uchun ham samarali natija beradiki, o'yinda bola yashashni o'rganmaydi, balki o'z hayoti bilan yashaydi».

O'yin tanlay bilish ham muhim ahamiyatga ega. Ammo o'yin bilan ta'lim o'rtasidagi bog'liqlik bola ulg'aygan sari o'zgarib boradi. Bolalar uchun o'yinning qadri yo'qolmaydi, balki mazmuni o'zgaradi. Endi bolalarni ko'proq fikriy faollikni talab etuvchi o'yinlar, sport tarzidagi (musobaqa jihatlari bor) o'yinlar qiziqтира boshlaydi. Pedagogika fani o'yinni bola shaxsini tarbiyalashning asosiy vositasi deb hisoblaydi. O'yin orqali bolalar kattalarning mehnat tajribasini, bilim, malaka va ko'nikmalari, harakat usullarini, ahloq normalari va qoidalarini, mulohaza va muhokamalarini egallab oladilar. O'yinda bolaning o'z tengdoshlari va kattalar bilan bo'ladigan munosabat usullari shakllanadi, his va didlari tarbiyalanadi.

Bolalarning o'yinda birlashishlari bir necha bosqichga bo'linadi. Birinchi bosqich bolalarning «yonma-yon» o'yinining shakllanib borishidir. Bu ilk yoshli va kichik guruh bolalariga hosdir. Bunday o'yinda bolalar o'rtog'ining o'yiniga qi-ziqish bilan qaraydilar, birga o'ynab, «yonma-yon» o'tirganlaridan hursand bo'ladilar. Bu yoshdagi bolalarning o'yini kattalar rahbarligida ularning hulqiga ta'sir etish orqali tashkil etiladi.

Ikkinchi bosqichda bolalar o'yin orqali mehanik ravnshta birlasha boshlaydilar. Bunday birlashishlar qisqa muddatli bo'ladi. Bu davrga kelib bolalardan kimning qaysi o'yinga qiziqishi aniq bo'la boshlaydi, bir hil bolalar didaktik o'yinga qiziqsalar, ikkinchilari harakatli o'yinni yoqtiradilar, uchipchilariga ijodiy o'yinlar ma'qulroq bo'ladi va h.k. Tarbiyachining vazifasi bolalarni u yoki bu o'yin bilan uzoqroq o'ynashga o'rgatishdir.

Uchinchi bosqichda o'ynovchi bolalar guruhy bir-biriga do'stona munosabat va o'zaro yoqtirish orqali birlashadilar. Birga o'ynovchilar soni ko'p bo'lmasada, bolalar qiziqib o'ynaydilar. Bu davrga kelib bir-birlariga baho berish umumiy talabi yuzaga keladi. Bu bosqichda tarbiyachi bolalarning o'yinda birlashishlarining ahloqiy asosini yuzaga keltirishi, ularda o'zaro yordam, o'rtoqlik, do'stlik munosabatlarini shakllantirishi lozim.

Bolalarning o'yinlari qiziqarli, mazmunli bo'lishi uchun o'yinning hamma turlaridan o'rinli foydalanilsa, bolalarga ta'lim berish va ularni tarbiyalashda ijobiy natijalarga erishiladi. Shunday qilib, pedagogika fani o'yinga bola shaxsini har tomonlama shakllantirish vositasi va ular hayotini tashkil etish shakli, bolalar jamoasini shakllantirish vositasi deb qaraydi.

Ijodiy o'yinlar. Ijodiy o'yinlarga: syujetli-rolli o'yinlar, sahnalashtirilgan o'yinlar, qurilish-yasashga doir o'yinlar kiradi. Ijodiy o'yinlarda bolalarning tevarakatrofdan olgan taassurotlari aks ettiriladi. Ijodiy o'yin bolalarning mustaqil o'yini bo'lib, o'yinning mazmunini ular o'zlari o'ylab topadilar. Bu o'yinda bolalarning

erkinligi, mustaqilligi, tashkilotchilik va ijodkorlik qobiliyatlari to'raligicha namoyon bo'ladi. Ammo o'yinda hayotiy taassurotlar aynan aks ettirilmaydi, balki bolalar ongida qayta ishlab chiqiladi. Bu bolalarning o'yin g'oyasini yaratishlarida, uning mazmunini tuzib, tasvirlovchi vositalarni tanlashlarida va shunga o'hshashlarda namoyon bo'ladi.

Syujetli-rolli o'yin o'z hususiyatiga ko'ra aks ettiruvchi faoliyatdir. Tevarak-atrofdagi kattalar va tengdoshlarining hayoti va faoliyati bu o'yin mazmuniga manba bo'lib hizmat qiladi.

Bolalarning tevarak-atrofdagi hcyotdan, tengdoshlari, kattalar faoliyatidan olgan taassurotlari. ijodiy o'yinda qayta ishlanadi, to'ldiriladi, sifat jihatidan o'zgartiriladi. Bolalarning bunday o'yinlari tevarak-atrofdagi borliqni bilishning amaliy shaklidir. Bolalar o'yinining o'ziga hos tomoni unda tasvirlovchi vaziyatlarning mavjudligidir. Tasvirlovchi vaziyat bolalarga o'yin jarayonida yuklangan roli va o'yin syujetidan tashkil topadi va har hil buyumlardan foydalanishni ham o'z ichiga oladi.

O'yinning syujeti — o'z harakati, munosabatlari bilan bog'langan voqea, hodisalar va ularning qatnashuvchilaridir. Roli syujetli-rolli o'yinning asosiy negizi hisoblanadi. O'yin bolada qanoatlanish, xursandchilik hissini paydo qiladi, shuning uchun bolani qiziqtirib, unda yahshi kayfiyat uyg'otadi, bola organizmidagi hayotiy faoliyatni yaxshilaydi.

Bola o'ynayotganda har hil harakatlar qiladi: yuguradi, sakraydi, tor joydan, ingichka taxtacha ustidan o'tadi, engashadi, yuqoriga tirmashib chiqadi va hokazo.

Bu harakatlarning hammasini bola bemalol, o'z xoxishi bilan bajaradi, natijada bolaning muskullari pishiydi, u harakatni yengilroq, chaqqonroq bajaradigan bo'lib qoladi, jismoniy jihatdan chiniqib boradi.

Bolaning aqliy tomondan rivojlanishi uchun ham o'yin katta ahamiyatga ega. O'yin natijasida bolaning bilimi kengayib boradi. Rolli o'yinlar bolaning kuzatuvchanligini, qiziquvchanligini, bilishga qiziqishini oshirib, bilish doirasini rivojlantiradi, boyitadi. O'yinda bola o'z oldiga maqsad qo'yadi, bu boladan aql, idrok ishlatishni talab qiladi, topag'onlikka o'rgatadi. O'yin jarayonida juda ko'p gaplashishga, tortishishga, bahslashishga, aytib berishga to'g'ri keladi. Bolalar o'zi yasayotgan narsalarini yaxshiroq yasash, qurish uchun juda ko'p o'ylab, fikrlashlariga to'g'ri keladi. Bular hammasi bola taffakkuri va hayolining rivojlanishida muhim ahamiyatga egadir. Bola o'z o'yinida borliqni aks ettirayotib, olgan rolining mazmuni bilan bog'liq bo'lgan u yoki bu hissiyotni boshidan kechiradi. Masalan, Dilnoza ona-bola o'yinida ona rolini o'ynayotib, bolalarini ovqatlantiradi, kiyintiradi, ular bilan yahshi munosabatda bo'lib erkalaydi, ular bilan gaplashadi, kitoblar o'qib beradi. Bu o'yin bolada muloyimlik,

g'amho'rlik, e'tiborlilik kabi yaxshi hislarni uyg'otadi. «Bolalar bog'chasi», «maktab» kabi o'yinlar bolada do'stlik, o'rtoqlik, burch hissi, jamoachilik kabi hislarni tarbiyalaydi. O'yinda dastlabki do'stlik munosabatlari paydo bo'ladi. Shunday qilib, ijodiy o'yinlar bola shahsining hamma tomoniga ta'sir etadi.

Rolli-syujetli o'yinlarning o'ziga xos xususiyati. Rolli o'yinlarning boshqa o'yinlarga nisbatan o'ziga hos hususiyatga egaligi ularda syujet, roli va hayol qilingan vaziyatning mavjud bo'lishidir. Bolalar biror narsa yoki voqea to'g'risida yetarlicha tasavvurga ega bo'lgandagina syujet, fikr yuzaga keladi. Masalan, bolalar «parohod» o'yinini o'ynamoqchi bo'lishdi. Bunga o'yinning qanday borishi to'g'risida syujet (voqeaning borishi) kerak. Syujet bolalarning bilimiga bog'liq bo'ladi. Bolalarda avval g'oya tug'iladi, keyin mazmuni rivojlanadi. Ba'zan bolalar o'yinning qanday borishini oldindan belgilab oladilar. Masalan, Afrikaga «bormoqchi» bo'lsalar, sayohat vaqtida qilinadigan ishlarni oldindan belgilab oladilar. Bundan ko'rinib turibdiki, rolli o'yin jamoachilik hususiyatiga ega, chunki bolalar bir-birlari bilan o'zaro munosabatda bo'ladilar. Rolli o'yinda har bir bola o'ziga olgan rolni bajaradi, masalan, ona, shofyor, tarbiyachi, enaga, artist va hokazo. Rolli o'yinlarda didaktik, qoidali-harakatli o'yinlardagi singari qat'iy o'rnatilgan qoida bo'lmaydi. Bunda ko'pincha bolalar o'z hayol qilgan narsalari bo'yicha harakat qiladilar. Masalan, «raketaga tushib oyga uchadilar», «parohodda suzadilar», «kasalni davolaydilar» . . .

Ammo, bolalarning xayollari bilan o'ynashlari ularni real voqelikdan uzoqlashtirib yubormaydimi degan savol tug'iladi? Yo'q, bolalar o'zlari buning o'yinligini yahshi biladilar. Bu «o'yin», bu faqat «o'yinda», deydi. Shu bilan birga bolalarning kechinmalari, hayajonlari, qilgan harakatlari hammasi rostakam, sidqidildan bo'ladi. Masalan, «doktor» rolidagi bola kasal to'g'risida qayg'uradi va shunga o'xshashlar. O'yin mavzui bolalar olgan taassurotning kuchli, bolalarning qiziqishlari bilan belgilanadi. O'yinda bolalar aks ettiradigan ijtimoiy-siyosiy voqealar bolalarning bilim doirasi va hayotiy tajribasining kengayib borishiga bog'liq bo'ladi.

Rolli o'yinlarning mazmuni va mavzusi o'zgarishi bilan bir qatorda uning tuzilishi va o'yin shakllari o'zgaradi, bolalarning mustaqilligi va tashabbuskorligi ham o'sib boradi. Avvaliga bolalar o'z-o'zicha alohida-alohida o'ynaydilar. Sekin-asta rolli o'yinlarning paydo bo'lishi, o'yinda kishilar o'rtasidagi munosabatni aks ettirish birgalikda bajariladigan o'yinni keltirib chiqaradi. Avvaliga katta bo'lmagan guruhchalar 2-3 kishidan bo'lib o'ynashadi, katta va tayyorlov guruhlariga kelib kattaroq jamoaga birlashadilar.

O'yinda har xil rollar orqali o'zaro munosabatda bo'lish bolalarda o'rtoqlik munosabatlarini shakllantirishga yordam beradi. O'rtoqlik munosabatining dastlabki

hususiyati bolalarda maslahatlashib, kelishib olishda namoyon bo`ladi. Kelishib olish avvalo o`yin mavzusini belgilab olishdan boshlanadi. Keyin rollarni taqsimlashda o`yinchoqlar tayyorlashda va boshqa sohalarda kelishib olinadi.

O`yinning tuzilishi va mazmuni o`zgarishi bilan o`yinchoqning roli va bolalarning unga nisbatan talabi ham o`zgarib boradi. Bolalarning o`ynashlari uchun ma`lum vositalar kerak. Rolli o`yinlarda bolalar har hil vositalardan foydalanadilar, ulardan asosiylari quyidagilar: bolalarning uya harakatlari; o`yinchoq va boshqa materiallar; so`z. Bolalarning asosiy tasvirlovchi vositalari o`zlarining harakatidir. Masalan, bola ikki oyog`ida sakrab quyunchaga taqlid qiladi. Ikki qo`lini qimirlatib, pishillab parovoz bo`ladi va hokazo. Bolalarning ko`p harakatlari qurish, yasash bilan bog`liq , bo`ladi. Ular soatlab parovoz, parohod, elektrovoz qurdalar, ularni o`ziga o`xshatishga urinadilar.

O`yin mazmunining rivojlanib borishi bilan murakkab jarayon bo`lgan bolalar jamoasi ham shakllana boshlaydi. O`yin bolalarning mustaqil faoliyati bo`lgani uchun uning syujetini bolalar o`zlari o`ylab topishadi va o`zlari tashkil egishadi. O`yinda bolalar o`zlarining kichkina jamiyatning a`zosi deb hisoblashadi, o`zaro kelishib xarakat qilishga o`rganishadi, axloq normalarini egallab borishadi. Ijtimoiy tarbiya olayotgan sharoitda har bir bola o`ynayotgan bolalar jamoasiga kira bilishi, u yerda o`z o`rnini topib olishi va shu jamoada o`rnashib olishi lozim.

O`yindagi umumiy qiziqishlar bolalarni bir-biriga yaqinlashtiradi, do`stlik aloqalarini o`rnatishga hizmat qiladi. Bunda, ayniqsa uzoq davom etadigan o`yinlar muhim ahamiyatni kasb etadi. Bir qancha bolalar dengiz sayohati o`yini bilan qizikib bir necha kungacha shu o`yinni o`ynashlari mumkin. "Ular kemada hali «shimoliy qutbga», hali issiq mamlakatlarga sayohatga borishadi. Uzoq o`ynaladigan o`yinlar bolalardan birgalikda amalga oshiriladigan ishlarni masla hatlashib olishni, rollarni bo`lishishni, bunda har bir bolaning qiziqishini e`tiborga olishni, o`rtoqlarining fikri bilan kelishishini, kerak bo`lgan har bir daqiqada o`rtog`iga yordamga kelishni talab etadi, bu bilan bolalarda umumiy ish uchun javobgarlik hissi rivojlanadi. Uzoq vaqt dengizchi rolini bajarish natijasida bolalarda odamiylik, o`rtoqlik, insonparvarlik, jasurlik, o`zaro yordam kabi ijobiy ahloqiy sifatlar shakllana boshlaydi. Bolalarni o`zaro munosabatlari borgan sari kamol topib boradi.

Shu tariqa, o`yindagi umumiy maqsadlar, umumiy qiziqishlar, birgalikdagi kechinmalar, intilishlar, ijodiy izlanishlar bolalarni birlashtiradi. Bolalarning uyushgan jamoasi birgalikdagi mazmunli o`yindan, pedagogning uzoq vaqt olib borgan ishi natijasida yuzaga keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Sh.M. Mirziyayev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz.//Toshkent - 2017, "O'zbekiston", 593 b.
2. Abdullayeva M. Bolalar o'yinlarida o'zaro munosabatlar // Boshlang'ich ta'lim- T:2000, №3-22-b
3. Abdullayeva M. Estetik tarbiyalanganlik me'zonlari// xalq ta'limi. T: 2004. №5.120-123-B.
4. Abdullayev M. Oilada maktabgacha tarbiya tarbiya yoshidagi bolalarga estetik tasavvurlarni shakllantirish // xalq ta'lim -:2006 № 4 86-89b
5. Abdullayeva M Oilada maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga go'zallik tuyg'usini shakllantirish // xalq ta'limi T: 2007№4 95-98b
6. Inomova M. Oilada bolalarning ma'navit-axloqiy tarbiyalashda milliy qadryatlar.- T:Fan, 1995-227 b